



YAPON KIMONOLARI O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI KOLLEKSIYASIDA

G’aniyeva Dilnoza Ikromovna

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi yetakchi mutaxassis
+998977158394 dilnozaganiyeva473@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston davlat san’at muzeyi kolleksiyasidagi yapon san’ati na’munalari shakllanishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni umumlashtiruvchi fundamental tadqiqot ishlari shu davrga qadar amalga oshirilmaganligi sababli, ilmiy maqolaning yangiligi shundan iboratki, muzey kolleksiyalaridagi yapon san’ati na’munalarini saqlash va Yapon milliy libosi - kimononing shakllanishi va rivojlanishi jarayonini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan namunalari yanada chuqurroq o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Kolleksiya, ekspozitsiya, eksponat, gobelen, fil suyagi, chinni, fayans, stelaj, katalog, netskiy, vafuku, kimono, obi, sode, yuzen.

Аннотация. В данной статье рассматривается история и своеобразие одного из популярных в Японии видов искусств – создание национального костюма-кимоно. Актуальность выбранной темы обусловлено тем, что фундаментальные исследовательские работы, обобщающие научные исследования по формированию образцов японского искусства в коллекции Государственного музея искусств Узбекистана, до настоящего времени не проводились. Новизна научной статьи заключается в том, что она направлена на сохранение экспонатов японского искусства в музейной коллекции и на более глубокое изучение, направленное на всестороннее освящение процесса формирования и развития японского национального костюма-кимоно.



Ключевые слова. Коллекция, экспозиция, экспонат, гобелен, слоновая кость, форфор, фаянс, стэлаж, каталог, нецке, вафуку, кимоно, оби, соде, юзен.

Abstract. This article deals with the history and originality one of the popular arts in Japan - the creation of national costume-kimono. The relevance of the chosen topic is conditioned by the fact that fundamental research works summarizing scientific studies on the formation of samples of Japanese art in the collection of the State Art Museum of Uzbekistan have not been carried out so far. The novelty of the scientific article lies in the fact that it is aimed at preserving the exhibits of Japanese art in the museum collection and at a more in-depth study aimed at a comprehensive consecration of the process of formation and development of the Japanese national costume-kimono.

Key words. Collection, exposition, exhibit, tapestry, ivory, porcelain, earthenware, shelving, catalog, netsuke, wafuku, kimono, obi, soda, yuzen.

KIRISH

Madaniy meros va uni saqlash jamiyat, davlat uchun yuksak ijtimoiy, madaniy ahamiyatga ega vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, keng ma'noda madaniyat mavjudligining asosiy vositalaridan biridir. Inson hayoti davomida uning ichki dunyosiga ta'sir o'tkazib madaniy merosga qaysidir jihatdan o'z hissasini qo'shadi. Aynan shu hissa avloddan avlodga, umuminsoniyatga milliy madaniyat rivoji uchun madaniy meros bo'lib qoladi. Ammo bu faqatgina asrab avaylagan taqdirdagina kelajak avlodga yetkaziladi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanib kelinayotgan yapon san'ati namunalarini shakllanish tarixini jadallashuvi dolzarbligini kutayotgan masalalardan biri bo'lib, u ilmiy jihatdan tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shu jihatdan, tanlangan mavzu dolzarb hisoblanadi.



Mazkur ilmiy maqolani yozish jarayonida qator ilmiy manba va adabiyotlar o'rganib chiqildi(1 – 10). Mavzu yuzasidan o'zbek olimlar, tadqiqotchilar, ekspert mutaxassislarning ilmiy adabiyotlari kamligi tufayli asosan xorijiy tadqiqotchi mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarini o'rgangan holda yoritilgan.

Yapon xalqining milliy kiyimlarning ayrim turlarini o'rganish va foydalanish bo'yicha qimmatli materiallar S.A.Arityunovaning “Современный быт японцев”(11) monografiyasida yoritilgan. Yaponiyaning kiyimlari haqida umumiy ma'lumot Rossiya Etnografiya instituti tomonidan N.N.Mikluxo-Maklayaning «Народы Восточной Азии: Народы Мира» (12) turkumli nashrida taqdim etilgan. XX asr boshlari, Rossiyaning antropologiya va etnografiya muzeyi kolleksiyasida mavjud Yapon kostyumining tarixi haqidagi qisqacha ma'lumot N.S.Nikolayev “Декоративное искусство Японии” (13) ilmiy ishida berilgan. Yapon kostyumining rivojlanishidagi asosiy bosqichlar M.B.Varobyeva va T.A.Sokolovaning “Очерки по истории науки, техники и ремесла в Японии”(14) to'plamida o'rganilgan. R.A.Ksenofontovaning XIX asr oxiridagi yapon an'anaviy kiyimlarining alohida na'munalarini tashqi ko'rinishi va dizayn xususiyatlarining tahlili, tasnifi va tavsifi berilgan ish katta qiziqish uyg'otadi.(15) F.M.Parmonning “Композиция костюма” (16) nomli kitobida muallif yapon kostyumini qisqacha tavsiflaydi.

O'zbekiston Davlat san'at muzeyi kolleksiyasida 500 dan ortiq yog'ochga chizilgan yapon gravyurasi bor. Shuningdek, muzey kolleksiyasida Yapon san'ati na'munalaridan 700 dan ortiq eksponat muzey fondida saqlanadi, yana 500 ga yaqini esa ekspozitsiyada namoyishga qo'yilgan. Yapon san'ati zalida bronza, sadaf va fil suyaklari bilan bezatilgan qizil va qora lakdan yasalgan shkaflar namoyish etilgan. Muzey Yaponiyaning XIX asrdagi yirik manzarachilarining, shuningdek, rassom Toyekuni va uning shogirdi bo'lmish Xirosige gravyuralari yapon tasviriy san'atining go'zalligini madh etadi. Yapon ekspozitsiyasida taqdim etilgan, o'zining shaffofligi va nozikligi tufayli “Tuxum po'chog'i” deb nom



taratgan, XVIII-XIX asrlarning 100 dan ortiq chinnisi e'tiborni tortadi. Brillog sifatida ishlatiladigan yog'ochdan va fil suyaklaridan yasalgan "Netske"¹ 34 tadan ortiq mo'jaz buyumlar, dekorativ chinni guldona, haykalchalar ekspozitsiyaga qo'yilgan.

Muzey ekspozitsiyasida Yaponiyaning noyob va bejirim qilib qo'lda tikilgan gobelen² namoyishga qo'yilgan. XX asrga tegishli bu gobelen– qo'l kashtachiligi bosma chokda shoyi iplar bilan tikilgan bo'lib muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinni e'tiborini tortadi. Gobelenda bambuk va turnalar tasvirlangan. Bu ish juda katta mahorat talab qiladi, shuning uchun ham tikuvchi har bitta detalga alohida e'tibor berib ishlaganligini ko'rishimiz mumkin. Matodagi **turnalar**, **bambuk daraxti**, yerda o'sib turgan maysalar, gular va hattoki suv to'ldirilgan kashtalangan. Matoda turnalarning osmondan uchib kelib suvga tushib asta sekin suvni ichayotgani ham juda mohirona tasvirlangan. Ekspozat 10 yil davomida tikilganligi aniqlangan.

Ekspozitsiyadan joy olgan XIX-XX asrlarga tegishli fil suyagidan ishlangan "Netske" haykalchalari ekspozatlar saqlanadi. Bu haykalchalar o'ymakorlik uslubida ishlangan bo'lib, kulib turgan hushchaqchaq kimono kiyib turgan yapon insonlari qiyofasini ko'rish mumkin. Daykoku³ xudosi haykalchasi ko'zlari yumilgan, kulib turgan va quloqlari osilgan holatda tasvirlangan. Bu quloqlari osilgan holati boylik, baxt ramzi hisoblanadi. Kichik hajmdagi juda ham hushchaqchaq savdogar tasvirlangan. Yapon milliy musiqa asboblari chalayotgan hamda milliy libos kimonoda aks ettirilgan sozandalar haykalchalari ham ekspozitsiyada namoyishga qo'yilgan. Shu bilan birga, 2 nafar kichik hajmli niqob ustalarining haykalchalarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, muzeyning 49-zalida yana XIX-XX asrlarga tegishli fil suyagidan yasalgan pardoz qutichasi,

¹ Netske yaponchdan tugma degan ma'noni anglatib, fil suyagidan yasalgan mayda haykalchalar ko'rinishida yasaladi.

² Gobelen (rus.) -qo'lda tasvir hosil qilib to'qilgan gilam(shpaler), badiiy buyum.

³ Daykoku (yap. "Buyuk qora")- Buddizmda omad keltiruvchi xudolaridan biri, omad keltiruvchi, qorong'u kuchlardan himoya qiluvchi degan ma'noni anglatadi



hassa, soyabon va muhr dastalari, “Uch maymun haykalchalari”, guldonlar o‘ymakorlik texnikasida ishlangan bo‘lib fil suyagi, sadaf marvarid toshlari yordamida inkrustatsiya qilingan. Mana shu fil suyagida ishlangan eksponatlar yapon chinni buyumlari, maxsus vitrinalarning ichida saqlanadi.

Yapon san’ati bo‘limini Yapon milliy kimonolari boshlab beradi. Yaponiyaning XX asrga tegishli erkaklar, ayollar va bolalar kimonolari ipak iplardan tikilgan va albatta bu kimonolar hashamdor, bayramona hisoblanadi. **Kimono** (yapon tilida: 着物) yapon milliy kiyimi bo‘lib “kiyiladigan narsa (kiyim)” ma’nosini bildiradi. Dastlab kimono so‘zi barcha kiyim kechaklarni bildirgan va vaqt o‘tishi bilan ayollar, erkaklar, va bolalar kiyadiga uzun milliy kiyimni bildirgan, o‘zbek to‘niga o‘xshash bari ustma-ust (chapi o‘ngi ustiga) o‘tkaziladi va belbog‘ (“obi”⁴)- (帯) bilan mahkamlanadi. Keng yenglari (“sode”⁵) (袖) quyida solqilanadi. Ayollar kimonosi belbog‘ining o‘ta kengligi va qo‘ltiq o‘mizining o‘yig‘i kabi ichki qirg‘oqlari tikilmaydigan uzun yenglari bilan ajralib turadi. Ishlatiladigan matosi va bichimiga ko‘ra, Kimono to‘ngi, uylik, kundalik, kishilik va marosim turlariga bo‘linadi.

Ekspozitsiyaga qo‘yilgan kimonolar asosan yaltiroq gullar bilan bezatilgan. Yapon san’ati zallarida qizil, yashil, oq, siyohrang, qora va ko‘k rangli kimonolarni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari vitrinalarda bayramona sumkacha, belbog‘, yelpig‘ich hamda yapon oyoq kiyimlarigacha ekspozitsiyada namoyish etilgan. Aynan shu ayollar kimonosi, sumkasi va belbog‘ini muzeyga tashrif buyurgan Yaponiyalik mehmon o‘zining shaxsiy, qimmatbaho kolleksiyasidan O‘zbekiston davlat san’at muzeyiga sovg‘a qilgan.

Tarizdan ma’lumki, XIX asrning oxirida Yaponiyada G‘arb uslubidagi kiyim kiyishni boshlaganlar soni ko‘paydi. G‘arbiy va yapon kostyumlari o‘rtasidagi farq yaponlarni “kimono” umumiy tushunchasining oxirgisini

⁴ Obi – yapon milliy libosining belbog‘ (kamar) qismi.

⁵ Sode – yapon milliy libosining yeng qismlari.



ta'kidlashga majbur qildi. Neologizm an'anaviy kiyimlarga murojaat qilish uchun paydo bo'ldi — "vafuku"⁶ ikkinchi jahon urushi tugaguniga qadar bu so'z yapon kiyimlarini aniqlash uchun asosiy so'zga aylandi. Biroq, urushdan keyingi davrda, Amerikaning yapon haqiqatini "tushunishi" ta'siri ostida "kimono" universal atamasi "vafuku"ning sinonimlaridan biri sifatida ishlatila boshlandi. (17)

Yapon madaniyatidagi inqilob XIX asrning ikkinchi yarmidagi Meiji davridagi g'arblashtirish islohotlariga olib keldi. Yevropa kiyinish modasi yapon an'anaviy kostyumini siqib chiqara boshladi. Ushbu jarayon 1945 - yilgacha asta-sekin va yuzaki davom etgan bo'lib, jamiyatning yetakchi qatlamlariga tegishli edi. Natijada, yaponlarning oddiy turmush tarzini demokratlashtirish va "amerikalashtirish" yapon kimonosini kundalik hayotdan olib tashlashga olib keldi. Bugungi kunda Yapon an'anaviy kostyumi asosan faqat ta'til va rasmiy tadbirlarda qo'llaniladi.

Shunisi ahamiyatliki, Yapon an'anaviy kiyimi xalatga o'xshab ketganligi sababli, unda Yevropa kostyumlari kabi ochiq yoqa yo'q. Umuman olganda, bu qulay va inson harakatlariga to'sqinlik qilmaydi. Kimono tikiladigan matolar odatda elastik emas, aksincha, biroz cho'ziluvchan. Kamar uchun alohida matodan foydalaniladi. Kiyim naqshlari odatda murakkab yumaloq shakllar bilan bezatilgan. Kimono juda rasmiy yoki kundalik kiyiladigan bo'lishi kerak. Ayollar kiyadigan kimononing darajasi rang bilan belgilanadi. Yosh qizlarning kimonolarida uzun yenglari bor va turmush qurgan ayollarnikiga qaraganda ko'proq bezatilgan. Erkaklar kimonolarida faqat bitta asosiy shakl va quyuqroq ranglar mavjud. Eng rasmiy kimono beshta gerbga ega. Paxta va polyesterdan tikilgan kimonolar ko'proq kundalik hayot uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Yapon xalqlarning qadimgi ajdodlari hayoti va liboslari haqida birinchi ma'lumotlar Xitoy yilnomalarida uchraydi. Veychi yilnomasida aytilishicha,

⁶ Vafuku – dastlab ikkinchi jahon urushi tugaguniga qadar yapon liboslarini shunday atashgan, keyinchalik esa hozirgi kunga qadar Vafuku- kimono deb ataladi.



eramizgacha bo'lgan I asrda Yapon qabilalari Xitoy saroyi bilan aloqada bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan III asrda ularning eng mashhurini Ximiko ismli ayol boshqargan. Bu qabila tariq, guruch va kanop yetishtirgan, zig'ir va ipak matolar to'qishda mohir bo'lgan. Mato oddiy dastgoh yordamida tayyorlangan. Ular nafaqat kiyim-kechak, balki ayrboshlash vositasi sifatida ham ishlatilgan . (18)

Yaponlarda qirollik oila a'zolari va saroy a'zolarining badavlat qismi boshlariga tilla taqinchoqlar, binafsha rangli, rang-barang figurali ipak yoki nozik doka bilan kashta tikilgan brokardan kiyim kiyganlar. Libos va bosh kiyimlar uchun matoning rangi va sifati turli xil bo'lgan.

Yomg'ir dehqonchilik uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham yapon kimonolarida va matolarning bezaklarida bulut naqshlari, chaqmoqning spiral zigzaglarini uchratamiz. Shuningdek kimonolarda o'simliklar, hasharotlar, hayvonlar va tabiat holatlari tasvirlari ham mavjud edi. Bular albatta o'z navbatida ramziy ma'no va ma'lum bir g'oyani ifoda etadi. Kimonolarda tasvirlangan nozik olxo'ri gullari qishning tugashini anglatardi, shuning uchun ham yaponlarda bahor arafasida shunday naqshli ko'ylaklar kiyiladi. Nozik olxo'ri gullari qishning oxirini bildirgan. Pion va Sakura esa bahor fasli daraxtlarning gullashi timsoli sanaladi. Shaffof oq lotus esa yoz bilan bog'liq va poklikni ifodalagan. Oltin xrizantema kuzgi kayfiyatga mos keladi. Yaponlarda oq rang motam rangi, qizil esa quvonch rangi hisoblangan va har doim kelinning libosida ishlatilgan. Qoida tariqasida, kelinning soch turmagi qizil gular bilan bezatilgan. Sariq rang yerning elementlarini ifodalagan va faqat imperatorning kiyimlarida ishlatilgan. Anor mevalari esa erkak naslini, Sakura gullari mardlik, jasorat ramzi sifatida xizmat qilgan; qarag'ay, bambuk va xrizantema uzoq umr ko'rish ramzini anglatadi. Kapalaklar va ko'rshapalaklar tasviri baxt, pion – boylik istagini bildirardi . (18)



Yudzen⁷ kimonolarni maxsus usulda bo'yash texnikasi bo'lib, XVII asrda ixtiro qilingan. Ushbu chidamli bo'yoq soya va guruch pastasi aralashmasidan tayyorlangan. Ushbu pasta kiyimga maxsus elementlarni qo'llash uchun ishlatilgan, joylarni bo'yoqning kirib kelishidan himoya qilgan. Bunday naqshlar qo'lda bo'yalgan holda amalga oshiriladi.

Erkaklar va ayollar kiyadigan kimono o'rtasida bir nechta nozik farqlar mavjud. Kimononi rang jihatdan farqlaydigan bo'lsak, ayollar kimonosi ko'pincha rang-barang bo'lib, qizil, pushti va binafsha rang kabi yorqin ranglardagi matolardan tikiladi, erkaklar kimonolari esa odatda juda nozik bo'lib, qora, jigarrang, ko'k va kulrang kabi rangdagi kimonolar eng keng tarqalgani hisoblanadi.

Naqsh jihatidan farqi shundaki, erkaklar kimonosi oddiy yoki bir nechta naqshli bo'ladi, odatda rasmiy kimonoga faqat kamon (kámon, oila ramzi) qo'shiladi. Biroq, ayollar kimonolarida ko'pincha tabiat bilan bog'liq naqshlar mavjud: gullar, hayvonlar va hatto qiziqarli zamonaviy kimonolarni topishingiz mumkin. Barcha kimonolar bir qismli yoki ikki qismli to'plamlar bo'lishi mumkin, ular rasmiy vaziyatlarda tananing pastki yarmiga kiyiladigan hakama (y) shimlari bo'lishi mumkin, ayollarning hakama kiyishini kamdan-kam uchratish mumkin, shuning uchun ham hakama erkaklar uchun keng tarqalgan.

O'zbekiston davlat san'at muzeyi kolleksiyasi va Yapon san'atining shakillanish tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqot tahlili, muzey ekspozitsiyasida namoyish etilgan eksponatlar haqida batafsil ma'lumotlar berilib, ularning umumiy tasnifi o'rganildi. Shu bilan birga Yaponiya milliy libosi bo'lgan kimono tarixi, turlari, kiyilish uslubi, naqshlari haqida ma'lumotlar keltirilib chuqur taxlil qilingan. Muallif tanlagan kolleksiya eksponatlarini xronologik tartibga ko'ra o'rganib, zamonaviy muzeyshunoslik metodologiyasi nuqtai nazaridan kelib

⁷ Yudzen – XVII asrda ixtiro qilingan bo'lib, kimononi maxsus usulda bo'yash texnikasi, bu chidamli bo'yoq so'ya va guruch pastasi aralashmasidan tayyorlangan.



chiqqan xolda tasniflab berdi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, faktologik materiallar, hujjatlar tahlili natijasida ilmiy maqolaning yakunida quyidagi xulosalar yuzaga keldi.

Sharq madaniyatlariga xos bo'lgan davomiylik an'analarini saqlab qolish yapon libosida yaqqol namoyon bo'lganligi aniqlandi. Yapon kostyumining butun ko'p asrlik tarixi Yaponiyaning doimiy ravishda boshqa mamlakatlar madaniyatiga murojaat qilganligi va xorijiy mamlakatlar dizaynidan mohirona foydalanganligi dalillandi. Buning natijasida nafaqat o'ziga xosligini yo'qotmaganini, balki bugungi kungacha an'anaviy asoslarini saqlab kelayotgan milliy liboslar majmuasi shakllanganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Бродский В.Е. Японское классическое искусство. Очерки, живопись, графика. – М., 1969.
2. Бродский В. Искусство Японии. - М., 1976.
3. Воробьев М.В. Япония в III-VII вв. - М., 1980.
4. Воробьев М.В. Соколова Г.А. Очерки по истории науки, техники и ремесла в Японии. - М., 1976.
5. Виноградова Н.А. Скульптура Японии III-XIV вв. – М.: «Изобразительное искусство», 1981. – 235 с. Воробьев М.В. Древняя Япония. - М., 1958.
6. Воробьев М.В. Древняя Япония. - М., 1958.
7. Дмитренко Р.П. Музей восточных культур отдел дальнего востока. Народное творчество Японии. Миниатюрная скульптура нетцке маски тсубы. – М.: 1928.
8. Григорьева Т.П. Японская художественная традиция. - М., 1979.
9. Иофан Н.А. Культура древней Японии. Издательство “Наука”, - М.: 1974.
10. Константин Симонов. Рассказы о Японском искусстве. Государственное издательство “Искусство”, – М.: 1944 – 1958 гг.



11. Миклухо-Маклая Н.Н. Народы Восточной Азии: Народы мира. - М.; Л., 1965.
12. Арутюнов С.А. Современный быт японцев. - М., 1968.
13. Николаева Н.С. Декоративное искусство Японии. Издательство «Искусство» - М.: 1972. 142 с.
14. Воробьев М.В. Соколова Г.А. Очерки по истории науки, техники и ремесла в Японии. - М., 1976.
15. Ксенофонтова Р.А. Японская одежда //Сб./МАЭ. - Л., 1977. Т. XXXII. С. 111 – 149.
16. Пармон Ф.М. “Композиция костюма”. - Москва: 1985. С. 75-77.
17. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yapon_kostyumi.
18. Шантанова Э. Кимоно// Журнал мод. 1985, №3. – 36 с.
19. [https://samrukamy.ru/decor/kak-legko-sshit-kimono...](https://samrukamy.ru/decor/kak-legko-sshit-kimono)
20. [https://cyberleninka.ru/article/view/ossobennosti-formirovaniye-yaponskogo-kostyuma...](https://cyberleninka.ru/article/view/ossobennosti-formirovaniye-yaponskogo-kostyuma)